

ZULFIYAXONIM SHE'RLARIDA BADIY GO'ZALLIK

Yuldashev Hamroz Tadjiboyevich¹,
Qodirova Saida Yangiboy qizi²,
Sultonova Rayxon Qurolboyevna³,
Yuldasheva Marhabo Ikromovna⁴

Xorazm viloyati Gurlan tumani 40-AFCHO'IM

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari^{1,2,3,4}

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7370139>

Annotatsiya: Ushbu maqolada cheksiz matonat va sabr timsoli bo'lgan Zulfiyaxonim she'rlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Matonat, shijoat, iroda, vafo, adabiyot osmoni yulduzi.

KIRISH

Qo'lga qalam olib qog'oz qoralash hammaning ham qo'lidan keladi. Lekin har bir so'zini jonidek suyib, unga mehr va muhabbatini, butun boshli iroda, matonat, vafo tushunchalarni unga jo etib ushbu so'zlari bilan har bir kitobxonning qalbiga yo'l topish, uni shu so'z qudrati bilan rom etib kitobxon ko'zlarida hayrat yoshlarining mavj urishiga erishish -bu albatta buyuk iste'dod, mahorat va sabr, matonatni talab etadi. Zero, har bir ijod mahsuli qalban yozilmas ekan u shunchaki oddiy so'zligicha qolaveradi.

ASOSIY QISM

Bu xuddiki cho'lda besamar o'sib yotgan yovoyi o'tga o'xshaydi. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov aytganidek: "Kitobdagi quvonch va iztirobni o'quvchi o'ziniki deb qabul qilsagina, o'sha haqiqiy asardir". O'zbek xalqining taniqli va iste'dodli shoirasi Zulfiya Isiroilova ana shunday matonat hamda qalb sohibasi edi. U oydin tunlarida oy bilan sirlashib yuragining tub - tubidan sizib chiqqan dardu g'amini, sog'inchga yo'g'rilgan hislarni, quvonchi - yu sevinchini o'zining qaynoq satrlariga jo etgan. Shuning uchun ham bu satrlarni o'qiganda beihtiyor uni og'ushida mast bo'lgandek, nafis so'zlar ta'sirida vujudingizda ajib hislar uyg'ongandek bo'laveradi. Iste'dod daraxtda o'smaydiki, uni silkitib mevasini olsang. U inson zotiga berilgan Xudoning inoyati, uni qo'ldan boy berish yoki kamolotga yetkazish mumkim bu har kimning o'z qo'lida. Tinimsiz mehnat, say- harakat orqali u rivoj topadi. Shuningdek, tashqi muhit ta'siri yoki oilaviy muhitning ta'siri ham turtki bo'ladi. Zulfiya onasi Xadicha xolaning allalarini, aytgan ertaklarini eshitib katta bo'ldi, otasi ustaxonasidan chiqqan chaqmoqtosh ovozi uning qalbiga chaqmoq kabi kirdi, otasi ustaxonasidan chiqqan olov isi unga ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Onasini, akalarining qo'llab - quvatlashlari, suyanchiq bo'lishlari uni tobora kamol topishiga nafaqat sababchi, balkim katta hayot maktabi bo'lib xizmat kildi, "Biz ajoyib do'stlar edik", - deydi shoira. Vaqt o'tib she'riyatga bo'lgan havas uni katta shoirlar

davrasiga boshladi. U Uyg'un, Hamid Olimjon, Oybek, Muzayyana Alaviya, G'afuv G'ulom kabi ijodkorlar bilan yaqindan tanishdi, yozuvchilar davrasiga kirdi. Shoiraning Hamid Olimjon bilan munosabatlari ana shu damda uchqunlana boshlagandi.

“ ... Yashirib o'tirmayman. Hamid Olimjon bilan ilk ko'rishuvlardan oq ko'zimdan ko'nglimga o'tdi. Men yosh hissiyotim bilan uning keng qalbi, ulkan iqtidorini tuydim”.

Zulfiya Hamid Olimjon ta'sirida o'zbek, jahon va rus shoirlari she'rlarini mutolaa qildi. Uni Pushkin, Tyutchev, Fetning misralari rom etdi. Hamid Olimjon hayot va ijod yo'lida Zulfiyaga suyanchiq bo'ldi. Shu yo'sin shoiraning kundan – kun yangi qirralari ochilib borar, nozik satrlarda bu o'z aksini topardi:

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,

Yurak boyligidan qilmabman parvo.

Meni og'ushlagan hayot naq oftob,

Yangi qo'shiq talab unda har saboq.

(Zulfiya Isroilovani “Achinmay qo'ydim” she'ri)

Uning ilk “Men ish qiziman” deb nomlangan she'ri Shukur Sa'dulla vositasida 1931 – yilda “Ishchi” gazetasida bosildi. Shundan so'ng “Yosh leninchi” va “Qizil O'zbekiston” gazetalarida

, “Yangi yo'l” va “O'zbekiston sho'ro adabiyoti” jurnallaridachop etila boshlandi.

1932 – yilda esa Zulfiyaning ilk she'rlar to'plami – “Hayot varaqalari” dunyo yuzini ko'rdi.

O'lim elchisi o'zbekning sevimli shoiri Hamid Olimjonni bu hayotdan olib ketganida Zulfiya hali o'ttizga ham kirmagandi. U Hamid Olimjonning o'limidan qatiq qayg'uga botgan esada o'zida buni yengishga kuch topa oldi. Iroda va matonatni kaftidan mahkam tutib taqdirning pastu baland yo'lida yurishni davom etdi.

Mana, bir umrni yashadim sensiz,

Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,

Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,

Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib. (Zulfiya Isroilovani “Sensiz” she'ri)

Endi u ham ota, ham ona farzandlari kamoloti uchun butun vujudi ila kirishib, ijodning nozik ohanglariga ko'ksini tutdi, dilida o'zini og'irligi bilan bosayotgan dardlari bilan uni qarshi oldi. Shunga bo'lsa kerak uni kuylarida nurdek oppoq hislar kishini o'ziga jalb etadi, uni she'rlarida o't bilan bog'liq obrazlar, tashbehtar hammasi tabiiy. Unda ma'nolar dengiz qaridagi dur kabi porlab turadi, ba'zan nozik satrlarini mutolaa qilarkansiz, u ko'nglingizda chaqmoqdek gumburlaydi - yu sizni jumbushga keltiradi:

Hijroning qalbidam, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasam, kunduz yodimda,
Men hayot yekanman, hayotsan sen ham!

(Zulfiya Isroilovani "Bahor haqida she'r" she'ri)

Inson hayotga bir bor keladi. Uni qanday yashab o'tish har kimning o'z qo'lida. U shu qisqa umri davomida qanday ishlar qildi? Umrini chiroyli yashab o'tdimi? O'zidan nimadir qoldirdimi? Zero insondan keyin undan qoladigan yaxshi amallari, u qoldirgan ma'naviy boylik kishilar qalbida to abad yashaydi, odamlar uni eslaganda faxr ila tilga olishadi, duo qilishadi. Axir Farhod ham tog'ni yorib suv chiqargani bois qadr topti, Iskandar ham qilgan yaxshiligi bois hamon yodlarda. Donolarimiz: "Yaxshidan bog' qoladi", - deb aytganlari bejiz emas. Zulfiya ham umri davomida ko'ngil chamanida yashnatgan bog'ini qoldirib ketdi. Bu bog'da sayr etarkansiz uning muattar xidli gullari sizni chorlayveradi, unda oquvchi tiniq buloqlar sizga orom beradi. Shunda shoiraning iste'dodiga tasanno aytasiz, she'riyatning nozik qudratini vujud - vujudingizda his eta boshlaysiz. Shu lahzalik hayrat sizni uni yodi bilan yashashga undaydi. Shunigchun ham Zulfiyahonim hamon qalblarda, uni har so'zida otashin yurak saslari eshitilib turadi, u adabiyot osmonida yulduz kabi porlab, nur sochadi va o'zbek ayolining shijoat, matonat timsoli bo'lib qolaveradi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarixiy manbalar(Ibrog'im G'afurov, Naim Karimovlarning Zulfiya Isroilova haqida aytgan fikrlari)
2. Zulfiyaxonim she'rlari ("Achinmay qo'ydim", "Sensiz", "Bahor haqida she'r")
3. <https://:ilmlar.uz>